

Date: 27th June-2026

**BURUN TO'SIG'I QIYSHAYISHIDA SEPTOPLASTIKANING KLINIK
SAMARADORLIGINI BAHOLASH: AN'ANAVIY, ENDOSKOPIK, LAZERLI VA
EKSTRAKORPORAL USULLARNING RELEVANT TAHLILI**

Alisherova Sevinchxon Solijon qizi

Mutaxassislik: 14.00.04 – Otorinologiya

Dissertatsiya ishining sohasi: Tibbiyot fanlari

Ilmiy rahbar: **Umarov O.M.**

Ish bajariladigan tashkilot: CAMU

Dolzarbli: Burun to'sig'ining simptomatik qiyshayishi (deviatsiyasi) aholi o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, doimiy nazal obstruksiya, hayot sifatining pasayishi va surunkali sinusit kabi asoratlarga sabab bo'ladi. Septoplastika ushbu patologiyani davolashda "oltin standart" hisoblansa-da, an'anaviy, endoskopik, lazerli va ekstrakorporal yondashuvlarning qiyosiy samaradorligi hamda operatsiyadan keyingi muvaffaqiyatsizlik omillarini aniqlash dolzarb rinojarrohlik muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Burun to'sig'i deviatsiyasini davolashda qo'llaniladigan turli jarrohlik usullarining klinik samaradorligini baholash, ularning hayot sifatiga (NOSE va SNOT-22 shkalalari bo'yicha) ta'sirini solishtirish va takroriy (revizion) aralashuvlarga sabab bo'luvchi omillarni tahlil qilish.

Material va usullar: Tadqiqot doirasida zamonaviy xalqaro randomizatsiyalangan nazorat qilinadigan sinovlar (jumladan, 378 bemorni qamrab olgan NAIROS tadqiqoti) va an'anaviy hamda endoskopik septoplastika o'tkazilgan 50 nafar bemorning qiyosiy prospektiv ma'lumotlari retrospektiv va statistik tahlil qilindi. Bemorlarda operatsiya vaqti, qon yo'qotish hajmi, sinexiya va perforatsiya kabi asoratlar darajasi o'rganildi.

Natijalar: NAIROS tadqiqoti ma'lumotlariga ko'ra, septoplastika guruhi medikamentoz davolashga nisbatan SNOT-22 shkalasi bo'yicha ishonchli ustunlik ko'rsatdi (farq 20,0 ball, $P < 0,001$). Qiyosiy tahlillar endoskopik septoplastikaning an'anaviy usulga nisbatan operatsiya vaqtini ($43,15 \pm 8,4$ min va $61,24 \pm 10,5$ min, $P < 0,005$) va intraoperatsion qon yo'qotishni ($54,60 \pm 15,3$ ml va $88,67 \pm 22,1$ ml, $P < 0,001$) sezilarli darajada kamaytirishini ko'rsatdi. Shuningdek, endoskopik yondashuvda operatsiyadan keyingi sinexiyalar chastotasi 4,0% ni tashkil etib, an'anaviy usulga (16,0%) nisbatan statistik jihatdan past bo'ldi ($P < 0,05$). Muvaffaqiyatsiz natijalar va revizion aralashuvlar (chastotasi 11,0% gacha) tahlil qilinganda, 62% holatda birlamchi bosqichda ichki burun klapani kollapsining tashxislanmay qolishi asosiy destruktiv omil ekanligi aniqlandi.

Xulosa: Endoskopik septoplastika burun to'sig'ining orqa va murakkab suyak-tog'ay bo'limlari deformatsiyalarini minimal invaziv, aniq vizualizatsiya ostida korreksiya qilish imkonini beruvchi samarali usul hisoblanadi. Operatsiyadan oldingi bosqichda burun klapani holatini mukammal baholash va operatsiyadan keyingi reabilitatsiya bayonnomalariga (burun ichi bosimini nazorat qilish, adekvat dori-darmon hamrohligi) qat'iy rioya etish retsidivlar xavfini minimallashtiradi va funksional natijalarni yaxshilaydi.



INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th June-2026

Kalit soʻzlar: septoplastika, endoskopik rinojarrohlik, burun toʻsigʻi deviatsiyasi, NOSE, SNOT-22, burun klapani kollapsi, revizion jarrohlik.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

